

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati
Komplayens xizmati tomonidan joriy yilning 9 oyi
davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
H I S O B O T

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (*keyingi o‘rinlarda – Jamiyat*)ning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens xizmatiga **15 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan 9 tasi xodimlar bilan to‘ldirilgan.

Xodimlar tomonidan “onlayn” malaka oshirish kurslariga qatnashib, bilim salohiyati oshirilishi natijasida Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish Akademiyasi (*International Anti-Corruption Academy*)ning “Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish” yo‘nalishida **9 ta** va “Aktivlarni deklaratsiyalash – korrupsiyani aniqlash indikatori” yo‘nalishida **8 ta**, “Xaridlar sohasida korrupsiya va firibgarlikni oldini olish” yo‘nalishida **2 ta** sertifikatlar olindi. Bundan tashqari, Moliya vazirligining “Davlat xaridlarini amalga oshirish” yo‘nalishida **7 ta** hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining sohaga oid **2 ta** sertifikatlar olindi.

2023-yil 1-aprelga qadar ISO 37001:2016 xalqaro standartning muvofiqlik sertifikatini olish yuzasidan **Yo‘l xaritasi** tasdiqlanib, uning ijrosi bo‘yicha **12 ta** ichki idoraviy hujjat ishlab chiqildi. Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Komplayens xizmatining nizomi, Xodimlarni ishga qabul qilish tartibi, Odob-axloq kodeksi, Xodimlarini odob-ahloq qoidalar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma, Korrupsiyaga oid harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash reglamenti, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash to‘g‘risidagi Nizom, Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti, Nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma, Xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom, “NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari, odob-ahloq qoidalarini hamda boshqa qonunbuzilish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlari va o‘rganishlar o‘tkazish bo‘yicha” Reglamentlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Shu bilan birga, xalqaro standart talablaridan kelib chiqib, **3 ta** ichki idoraviy hujjat loyihalari tegishli tuzilmalar bilan kelishilmoqda.

Komplayens xizmati tomonidan jami **712 ta** (*582 ta buyruq va 130 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan **27 ta** takliflar ishlab chiqilib, **9 tasi** amaliyotga joriy etildi va **15 tasi** o‘rganib chiqilmoqda (*3 tasi qabul qilinmadi*).

Joriy yilning 9 oyi davomida Komplayens xizmatiga jami **95 ta** ijro hujjatlari kelib tushgan bo‘lib, shundan muddati kelgan **67 tasi**ning ijrosi ta‘minlandi.

Xaridlar sohasida “Potensial tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilarining dastlabki malakasini baholash bo‘yicha tashkil etilgan komissiya” (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **23 ta** tender hujjatlari bo‘yicha **45 ta** sub’yektlarning hujjatlari ko‘rib chiqilib, **1 ta** holatda manfaatlar to‘qnashuvi oldi olindi.

Jamiyatning rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma’lumotlar” bo‘limlari joriy etildi. Mazkur bo‘limlarda ichki idoraviy hujjatlar, e’lon qilinishi belgilangan ma’lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (*ishonch telefoni va elektron pochta*) aloqa kanallar hamda Komplayens xizmatining mas’ul xodimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirildi.

O‘tgan davr mobaynida jamiyat xodimlari bilan **30 marotaba** huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Xususan, 10 ta uchrashuv, 15 ta seminar, 2 ta rasmiy veb-saytga va 1 ta gazetaga maqola hamda 1 ta so‘rovnoma o‘tkazilib, 1 ta taqdimnoma muhokama etildi.

Fuqaro murojaatlari va topshiriqlarga asosan jami **17 ta** o‘rganish hamda xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, 8 tasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi. Xususan, 1 ta holatda jamiyat manfaatlariga zarar yetkazilganligi yuzasidan Ixtisoslashtirilgan prokuratura tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, zarar to‘liq undirilishi ta’minlandi.

1 nafar rahbar xodim ma’muriy va 7 nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan “NKMK” AJning 2022-yil 17-yanvardagi 33-sonli buyrug‘i qabul qilingan. Shu bilan birga, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining “E-Anticor.uz” elektron platformasiga belgilangan dastlabki ma’lumotlarni kiritildi.

Komplayens xizmati boshlig‘i

A.Soliyev